



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SURXONDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2025-YIL YANVAR

SURXONDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2025-yilning 1-fevral holatiga Surxondaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 1 851 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 471 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarning 25,4 % i Termiz shahrida joylashgan.

2025-yil 1-fevral holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda



Termiz sh.	471
Termiz t.	150
Denov t.	147
Jarqo'rg'on t.	139
Sariosiyo t.	138
Boysun t.	113
Qumqo'rg'on t.	112
Angor t.	103
Sho'rchi t.	83
Sherobod t.	78
Qiziriq t.	74
Muzrabot t.	72
Oltinsoy t.	67
Uzun t.	58
Bandixon t.	46



Shuningdek, Termiz tumanida – 150 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 8,1 %), Denov tumanida 147 ta (7,9 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar uchun)

2025-yilning yanvar oyida, Surxondaryo viloyatida jami 397,3 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,1 % ni tashkil etdi.



2021

310,3
mlrd so'm

100,2 %



2022

351,7
mlrd so'm

100,1 %

2023

228,7
mlrd so'm

60,7 %

2024

370,9
mlrd so'm

107,2 %

2025


397,3
mlrd so'm

105,1 %

Oldingi yilning mos davriga nisbatan



Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



2025-yilning yanvar oyida Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari *

**Hududlarning hajmi va 2024-yilning mos davriga nisbati,
mlrd so‘m va foizda**

	Qurilish ishlari, mlrd so‘m *	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	397,3	105,1	100,0
Termiz sh.	79,1	103,3	19,9
tumanlar:			
Oltinsoy	3,0	104,6	0,8
Angor	7,7	110,1	1,9
Bandixon	3,1	96,6	0,8
Boysun	19,6	106,2	4,9
Muzrabot	8,8	103,1	2,2
Denov	30,1	103,5	7,6
Jarqo‘rg‘on	21,0	106,9	5,3
Qumqo‘rg‘on	11,6	105,6	2,9
Qiziriq	8,2	103,0	2,1
Sariosiyo	32,3	94,3	8,1
Termiz	12,7	104,7	3,2
Uzun	6,5	103,2	1,6
Sherobod	14,4	103,5	3,6
Sho‘rchi	8,1	104,0	2,0


)* hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2025-yilning yanvar oyida hududlar kesimida xususan, Termiz shahri (79,1 mlrd so‘m), Denov tumani (30,1 mlrd so‘m) va Sariosiyo tumanida (32,3 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2025-yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar oyida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 75,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 96,5 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,2 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,9 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2025-yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 81,2 % i yoki 322,7 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

16,8
mlrd so'm

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 16,8 mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

5,2 %

179,6
mlrd so'm

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 179,6 mlrd so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 55,6 % ni tashkil etdi.


55,6 %

126,3
mlrd so'm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 126,3 mlrd so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 39,2 % ni tashkil etdi.

39,2 %


Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi



2025-yilning yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 300,8 mlrd so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,9 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamayib, 53,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamayib, 43,3 % ni tashkil etdi.

**2025-yilning yanvar oyida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari**
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish, 71,8 mlrd so'm



Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 22,0 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,0 % (7,0 % punktga ko'payish).

2025-yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, **24,7 mlrd so'm**



13,8 %

Jamiga nisbatan ulushi




86,2 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi va 13,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 86,2 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

2025-yilning yanvar oyida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Qurilish ishlari * hajmining tarkibi, mlrd so'mda



)* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2024-yilning mos davri bilan solishtirganda –
99,6 %



Kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning mos davri bilan solishtirganda –
106,7 %




Norasmiy sektor

2024-yilning mos davri bilan solishtirganda –
103,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 28,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 99,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,4 % ga kamayib, 7,1 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari *

Hududlarning hajmi *, mlrd so'mda



)* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Jamiga nisbatan ulushi



Sariosiyo tumani



Termiz shahri




Qumqo'rg'on tumani

Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Termiz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 0,1 % i), Sariosiyo tumani (35,9 %) va Qumqo'rg'on tumanida (8,6 %) qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2025-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxona va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi



2025-yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 60,1 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ni tashkil etgan holda 238,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.



2025-yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar *

Hududlarning hajmi *, mlrd so'm

Surxondaryo viloyati

Termiz sh.

Oltinsoy

Angor

Bandixon

Boysun

Muzrabot

Denov

Jarqo'rg'on

Qumqo'rg'on

Qiziriq


Sariosiyo

Termiz

Uzun

Sherobod

Sho'rchi



)* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



75,8
mlrd so'm

Termiz shahri



20,6
mlrd so'm

Denov tumani




15,4
mlrd so'm

Boysun tumani


Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Termiz shahrida (75,8 mlrd so'm), Denov tumanida (20,6 mlrd so'm) va Boysun tumanida (15,4 mlrd so'm) qayd etildi.

2025-yilning yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 32,8 % ni yoki 130,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni tashkil etdi. Shundan 117,7 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 8,6 mlrd so'mni va 99,3 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 4,1 mlrd so'mni va 99,1 % ni tashkil etdi.



2025-yilning yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor *

Hududlarning hajmi *, mlrd so'mda

Surxondaryo viloyati



)* hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



9,5 mlrd so'm
Denov tumani



6,7 mlrd so'm
Sariosiyo tumani




4,2 mlrd so'm
Boysun tumani


Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Denov tumanida (9,5 mlrd so'm), Sariosiyo tumanida (6,7 mlrd so'm) va Boysun tumanida (4,2 mlrd so'm) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar oyidagi **hajm, mlrd so'mda**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 1,0 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 396,3 mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 0,2 % va 99,8 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Oltinsoy tumanida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % i), Angor tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 99,9 % i) va Boysun tumanida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 100,0 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 76 225-65-59 (7520)